

26,27-noyabr kunlari Toshkentda Open Data Challenge 2016 – ilovalarni ochiq ma'lumotlardan foydalangan holda ishlab chiqish bo'yicha tanlov bo'lib o'tadi. Tadbir O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, BMTTD O'zbekistondagi vakilligi, UZINFOCOM markazi va Toshkentdagi Inha universiteti tomonidan tashkil etilmoqda. Uch kunlik seminar-trening natijasida Open Data Challenge 2016 ishtirokchilari turmushning barcha jabhalarida: moliya, transport, ta'lim, sog'liqni saqlash, ekologiya sohalarida foydali bo'lgan yangi loyihalarni taqdim etadilar. Mobil va veb ilovalar, infografika, media-loyihalar va maqolalar tadbirning moddiy mahsuli hisoblanadi. Loyihalarni ishlab chiqish jarayonida jurnalistlar uchun master-klasslar va dasturchilar uchun ochiq ma'lumotlar bilan ishlashga oid treninglar bo'lib o'tadi.

### **Ishtirokchilar**

Ushbu tadbirda dasturchilar, grafik dizaynerlari, jurnalistlar, tahlilchilar va ochiq ma'lumotlar haqida tushunchaga ega bo'lgan faollar qatnashishi mumkin.

### **Bevosita ishtirok nima uchun kerak?**

Open Data Challenge 2016 da Siz:

- O'zbekistondagi turmush tarzini yanada qiziqarliroq va qulayroq qilish imkonini beruvchi g'oyalardan birini amalga oshirish
- O'z noyob g'oyangizni keng omma e'tiboriga havola etish
- Guruhda yetishmagan a'zolari izlab topish yoki mavjud guruhga qo'shib olish
- Qimmatbaho sovg'a va mukofotlarni yutib olish
- Mentorlarning muhim maslahatlarini olish
- Soat ichida tayyor yangi loyiha yoki namunani ishlab chiqish tajribasiga ega bo'lish
- Haqiqiy hakerlar muhitiga sho'ng'ish. Pissa, qahva, pishiriqlar sizga muntazir bo'ladi

### **Mentorlar**

Open Data Challenge 2016 tashkilotchilari mentorlar – dasturlash, dizayn, ommaviy ishtirok hamda ochiq ma'lumotlarni tahlil etish va ulardan foydalanish sohasidagi mutahassis-ekspertlarni taklif etganlar, ular guruhlariga maslahatlar berib, loyihalar ustida ish olib borishga ko'maklashadilar.

### **Shartlar**

Asosiy shart – mahsulot namunasi ilova, xizmat, infografika yoki maqola.

Open Data Challenge 2016da ishtirok etish barcha uchun bepul bo'lib, ishtirokchilarning ro'yxatdan o'tishlari talab etiladi. Tashkilotchilar ishtirokchilarni nonushta, internet va ish muhiti bilan ta'minlaydilar.

### **Nominatsiyalar**

Barcha loyihalarning taqdimoti 2016-yil 27-noyabrda bo'lib o'tadi va davlat organlari, jamoatchilik, biznes, betaraf ekspert vakillaridan iborat bo'lgan vakolatli hakamlar hay'ati quyidagi nominatsiyalar bo'yicha g'oliblarni aniqlaydilar:

1. Ochiq ma'lumotlarga asoslangan eng yaxshi ijtimoiy loyiha (mobil yoki veb-ilova)
2. Ochiq ma'lumotlarga asoslangan eng yaxshi biznes loyiha (mobil yoki veb-ilova)
3. Ochiq ma'lumotlarga asoslangan namoyishning eng yaxshi yechimi (infografika yoki maqola)

Qanday ilovalar ishlab chiqilishi mumkin? Ular: ayrim biznes, ekologiya yoki ijtimoiy jarayonlarga oid yechimlar va tadbirkorlarga yordam berishga yo'naltirilgan xizmatlar. Eng yaxshi loyihalarni davlat organlari, biznes, yetakchi texnik mutahassislar vakillaridan iborat bo'lgan hakamlar hay'ati aniqlaydi. G'oliblar qisman jamoatchilikning ovoz berishi asosida ham baholanadi. Tanlov g'oliblariga loyihalari ustida ishni davom ettirish uchun moliyaviy va ekspert yordami ajratiladi.

### **Ro'yxatdan o'tish**

Tanlovda ishtirok etish uchun [quyidagi havola orqali](#) ro'yxatdan o'tishingiz zarur.

Qo'shimcha ma'lumotlar uchun quyidagi telefon va elektron pochtaiga murojaat etishingiz mumkin: +998 97 747 06 33, [rimma.mukhtarova@gmail.com](mailto:rimma.mukhtarova@gmail.com)

### **Asosiy sanalar**

Open Data Challenge 2016da ishtirok etish va tayyorgarlik ko'rish quyidagi bosqichlar bo'yicha bo'lib o'tadi:

1. Ro'yxatdan o'tish – 2016-yilning 23 -noyabrigacha.
2. Ochiq ma'lumotlar va jurnalistika ma'lumotlari uchun trening – 2016-yil 24-25-noyabr kunlari.
3. Ochiq ma'lumotlar (dasturlash) va ochiq ma'lumotlarga asoslangan ilovalarni ishlab chiqish bo'yicha trening – 2016-yil 24,25-noyabr kunlari.
4. G'oliblarni taqdirlash marosimi – 2016-yil 27-noyabrda.

Qiziqib qoldingizmi? [Ro'yxatdan o'ting!](#)

### **Tadbir bo'lib o'tadigan joy INHA universiteti**

Manba: <https://data.gov.uz/challenge>